



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60220300 – Tarix
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60220300 – Tarix

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ERGASHEV ODIL TURSUNOVICH

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Kafedra mudiri



A'zo: SIMONE MANTELLINI

University of Bologna

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260019
Xulosa raqami	1010
Xulosa sanasi	22.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 20-uy. Guvohnoma: MAS № 0000319, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Tarix
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60220300
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000319, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60220300 – Tarix
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60220300 – History
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60220300 – История
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	masofaviy
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Tarixchi-sharqshunos, tarix fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 20-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ta'lim dasturini tashkiliy-boshqaruv jihatdan amalga oshirish hamda sifatni ta'minlash tizimi amaldagi normativ talablar asosida shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmani tashkil etish, uni zarur moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlash bo'yicha aniq reja va mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha 5 yillik istiqbolli reja taqdim etilgan bo'lib, unda ijro intizomi, o'quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot faoliyati, innovatsiyalarni rivojlantirish hamda resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlari qamrab olingan. Tarix yo'nalishida ilmiy-tadqiqot komponentining rivojlantirish rejasiga kiritilgani sharqshunoslik yo'nalishiga ixtisoslashgan universitet sharoitida ta'lim dasturining ilmiy salohiyatini mustahkamlash hamda akademik muhitni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Ichki sifatni ta'minlash tizimi hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgan. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60220300 – Tarix bakalavriat ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayonlari belgilangan tartibda amalga oshirilgani, ta'lim dasturining maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalari aniq belgilanganligi aniqlandi. Taqdim etilgan hujjatlarga ko'ra, ta'lim dasturi Milliy malakalar ramkasi, kasbiy standartlar, Davlat

ta'lim standartlari hamda xalqaro yondashuvlar talablariga muvofiq shakllantirilgan. Ta'lim dasturining fanlar katalogi umumiy 240 kreditni, o'quv yuklamasi esa 7200 soatni tashkil etadi. Dastur mazmunida tarix sohasiga oid zamonaviy ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar o'z aksini topgan bo'lib, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish tamoyili asosida ta'minlangan. Tarix yo'nalishida manbashunoslik va sharqshunoslik komponentlarining ta'lim dasturi mazmuniga integratsiya qilingani bitiruvchilarda tarixiy manbalarni ilmiy tahlil qilish, sharq xalqlari tarixi va madaniyatini chuqur o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchilarga "Tarixchi-sharqshunos, tarix fani o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi berilishi ularning ilmiy hamda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish kompetensiyalariga ega bo'lishini nazarda tutadi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60220300 – Tarix bakalavriat ta'lim dasturi amaldagi me'yoriy-uslubiy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqilgani, unda ta'lim maqsadlari, vazifalari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda baholash mezonlari aniq belgilanganligi aniqlandi. O'quv rejalari O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi, malaka talablari hamda tegishli kasbiy standartlar asosida shakllantirilgan bo'lib, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqishda mazkur hujjatlar talablariga to'liq rioya etilgan. Ta'lim dasturini takomillashtirish jarayonida UNESCOning Ta'limning xalqaro standart tasnifi (ISCED) hamda yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribalaridan foydalanilgani ta'lim dasturining xalqaro talablarga mosligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Masofaviy ta'lim shaklida o'quv natijalarini xolis baholash, nazorat jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda akademik halollik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgan. O'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60220300 – Tarix bakalavriat ta'lim dasturi doirasida talabalarni qabul qilish jarayonlari shaffof, tizimli hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Qabul parametrlari ta'lim muassasasining mavjud resurslari va imkoniyatlariga muvofiq belgilangan bo'lib, qabul mezonlari ta'lim dasturining maqsadlari va malaka talablariga mos keladi. Talabalarining akademik harakatini tartibga soluvchi mexanizmlar, jumladan o'qishni ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, akademik ta'til, qayta tiklash hamda boshqa tartiblar amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida yo'lga qo'yilgan. Qabul parametrlarini shakllantirish jarayonida mehnat bozori ehtiyojlari tahlil qilingani hamda 13 ta tashkilotdan olingan taklif va tavsiyalar inobatga olingani qabul hajmining real iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarga asoslanganligini tasdiqlovchi muhim omil sifatida baholandi. Talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgan. Talabalar faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60220300 – Tarix bakalavriat ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi yetarli darajada shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini amalga oshirishga jami 25 nafar professor-o'qituvchi jalb etilgan bo'lib, ularning 4 nafari fan doktorlari (professorlar), 15 nafari fan nomzodlari (dotsentlar) hisoblanadi. Professor-o'qituvchilarning 25 nafardan 19 nafari ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega ekani tarix yo'nalishida fundamental nazariy tayyorgarlik, manbashunoslik kompetensiyalari hamda ilmiy-pedagogik faoliyat sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Ta'lim dasturining ixtisoslik xususiyatlariga mos ravishda boshqaruv, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tarkibi ham zarur malaka va tajribaga ega mutaxassislar hisobidan shakllantirilgan. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 60220300 – Tarix bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv binolari, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, axborot-resurs markazi hamda zamonaviy o'quv-ilmiy jihozlar shakllantirilgani aniqlandi. Har bir fan (modul) bo'yicha o'quv dasturlarida nazarda tutilgan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganlikni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan. Shuningdek, o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan fanlar kesimidagi adabiyotlar ro'yxati shakllantirilgani ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlanganligini tasdiqlaydi. Masofaviy shaklda amalga oshiriladigan tarix ta'lim dasturi uchun elektron kutubxona, raqamli tarixiy manbalar bazasi hamda masofaviy ta'lim platformasining barqaror va uzluksiz faoliyat yuritishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Masofaviy ta'lim shaklida elektron kutubxona, raqamli manbalar va platforma barqarorligini muntazam mustahkamlash tavsiya etiladi.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Masofaviy ta'lim platformasi va elektron manbalar bazasini mustahkamlash.
- ✓ Xalqaro universitetlar bilan hamkorlik va akademik mobillikni kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning raqamli ta'lim kompetensiyalarini oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 60220300 – Tarix (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi shakllantirilgani, ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha 5 yillik istiqbolli reja ishlab chiqilgani hamda ichki sifatni ta'minlash va manfaatdor tomonlar ishtiroki mexanizmlari joriy etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Milliy malakalar ramkasi, kasbiy standartlar, Davlat ta'lim standartlari hamda UNESCOning Ta'limning xalqaro standart tasnifi (ISCED) talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, fanlar katalogi 240 kredit va 7200 soat hajmida shakllantirilgan. O'quv jarayoni va baholash tizimi amaldagi me'yoriy-uslubiy hujjatlar asosida tashkil etilgan, masofaviy ta'lim shaklida akademik halollik hamda baholashning xolisligini ta'minlash mexanizmlari joriy etilgan. Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlari tahlili hamda 13 ta tashkilotdan olingan takliflar asosida shakllantirilgan bo'lib, talabalarni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirishga jami 25 nafar professor-o'qituvchi jalb etilgan, ularning 4 nafari fan doktorlari (professorlar), 15 nafari fan nomzodlari (dotsentlar) bo'lib, yuqori malakali kadrlar salohiyati ta'minlangan. Universitetda zamonaviy o'quv binolari, laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, masofaviy ta'lim platformasi hamda o'quv-ilmiy jihozlar bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) va barcha indikatorlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60220300 – Tarix (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

